

## XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2023 yilning yanvar-mart oylari holatiga)

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2023 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3468,2 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


2023 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 4595,2 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,5 foiz), Qo‘ng‘irot tumanida 4022,8 ming so‘m (116,0 foiz) va Taxiatosh tumanida 3621,0 ming so‘m (104,4 foiz) ni tashkil etgan.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2023 yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalarida hamda  
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Respublika bo‘yicha jami</b>	<b>162 470</b>	<b>1 658,9</b>	<b>3 468,2</b>
shu jumladan:			
Sanoat	14 839	211,9	4 760,4
Qurilish	1 760	18,3	3 461,8
Savdo	811	7,3	3 013,5
Tashish va saqlash	9 310	131,0	4 690,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	74	0,8	3 494,5
Axborot va aloqa	1 130	18,7	5 516,5
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 827	79,8	9 411,3
Ta‘lim	79 061	656,6	2 768,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 756	242,2	3 017,0
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 874	23,6	2 732,6
Boshqa faoliyat turlari	23 028	268,8	3 890,5


### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



2023 - yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish darajasi **132,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasi **157,5 %**, qurilish sohasida **128,7 %**, savdo sohasi **123,1 %**, tashish va saqlash sohasida **120,0 %**, sanoat sohasida **116,4 %**, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish **116,2 %** hamda ta‘lim sohasida **113,0 %** ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

#### SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



## Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**25 865,0**

Tog‘-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash



**4 609,6**

Ishlab chiqarish sanoati



**2 064,1**

Suv bilan ta‘minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish va  
utilizatsiya qilish




**5 945,9**

Elektr, gaz, bug‘  
bilan ta‘minlash va havoni  
konditsiyalash


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (**25 865,0 ming so‘m**), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (**5 945,9 ming so‘m**) hamda ishlab chiqarish sanoati (**4 609,6 ming so‘m**)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida



● ming so‘m  
● o‘rta o‘rinda o‘zgarish sur‘ati


### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (**8746,2 ming so‘m**), Taxiatosh tumani (**6684,2 ming so‘m**) hamda Nukus tumanida (**5548,3 ming so‘m**) kuzatildi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

### QURILISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI,




### Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘irot tumani (**3886,0 ming so‘m**), Taxiatoş tumani (**3631,4 ming so‘m**) hamda To‘rtko‘l tumani (**3595,9 ming so‘m**)da qayd etildi.

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



*o‘zgarish sur‘ati, %da*

## SAVDO SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



■ ming so‘mda  
— o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da

### Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**2 385,6**

Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi



**2 876,6**

Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo



**7 888,8**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash




**1 608,0**

Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo


Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash (**7 888,8 ming so‘m**)da, eng past ko‘rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo (**1 608,0 ming so‘m**)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida




■ ming so‘m      ● o‘shish sur‘ati

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



Savdo sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Taxiatosh tumanida (3428,5 ming so‘m) qayd etilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Ellikqal‘a tumanida (949,4 ming so‘m) kuzatildi.

### TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



## Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi



**5 182,1** ming so'm

Ombor xo'jaligi va yordamchi  
transport faoliyati



**4 839,9** ming so'm

Quruqlikdagi va quvur  
transporti




**1 819,6** ming so'm

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi quruqlikdagi va quvur transporti (**5 182,1 ming so'm**)da, eng past ko'rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyati (**1 819,6 ming so'm**)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qo'ng'iro't tumani (**5650,5 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Ellikqal'a tumanida (**142,8%**), Nukus shahrida (**140,0 %**) hamda Xo'jayli tumanida (**127,7 %**) qayd etildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi aloqa sohasi (**6 610,8 ming so‘m**)da, eng past ko‘rsatkich esa noshirlik faoliyati (**1 968,5 ming so‘m**)da kuzatildi.



## Hududlar kesimida




## O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (**5618,8 ming so‘m**) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘shish sur‘ati Nukus shahri (**164,3 %**), Taxtako‘pir (**158,4 %**), Chimboy (**156,0 %**) hamda Mo‘ynoq tumanlarida (**130,4 %**) qayd etildi.

## BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi**



**5 080,8** *ming so‘m*

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyati



**9 597,2** *ming so‘m*

Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar




**3 575,2** *ming so‘m*

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyat


Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar (**9 597,2 ming so‘m**)da eng past ko‘rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyati (**3 575,2 ming so‘m**)da kuzatildi.

**Hududlar kesimida**




 *ming so‘m*       *o‘rta oylik ish haqining o‘zgarishi (%)*

**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (**10 976,4 ming so‘m**) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘rta oylik ish haqining o‘zgarishi Nukus shahri (**150,1 %**), To‘rtko‘l tumani (**148,6 %**) hamda Taxtako‘pir tumanida (**147,2 %**) qayd etildi.

## TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




## Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi




Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi oliy ta'lim (**5 577,7 ming so‘m**)da, eng past ko'rsatkich esa maktabgacha ta'lim (**1 626,9 ming so‘m**)da kuzatildi.


### Ta'lim sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (**3756,7 ming so'm**), Xo'jayli tumani (**2980,6 ming so'm**), Ellikqal'a tumani (**2791,8 ming so'm**) hamda Kegeyli tumanlari (**2774,8 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Nukus tumanida (**119,6 %**), Amudaryo va Bo'zatov (**119,5 %**), Mo'ynoq (**118,6 %**) hamda Xo'jayli tumanlarida (**118,5 %**) qayd etildi.

## SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qonliko‘l tumani (**3532,0 ming so‘m**), Chimboy tumani (**3422,4 ming so‘m**), Nukus shahri (**3312,0 ming so‘m**) hamda Xo‘jayli tumani (**3116,1 ming so‘m**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘shish sur‘ati Bo‘zatov tumani (**132,9 %**), Qonliko‘l (**131,6 %**) hamda Qorao‘zak tumanlarida (**128,0 %**) qayd etildi.

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m

